| <b>Sayfullayev Jamshidjon Xabibjanovich</b>                                                                                                    |     |
| Kambag'allikni qisqartirish va aholi bandligini ta'minlashda tadbirkorlik faoliyatining o'rni.....                                             | 560 |
| <b>Saparov Ismat Chorshanbiyevich</b>                                                                                                          |     |
| Innovatsion korxonalarda xarajatlar hisobining zamonaviy usullari .....                                                                        | 565 |
| <b>Turayev Og'abek Kaxramonovich, Ochilov Shavkat Toshmamatovich</b>                                                                           |     |
| Дополнительные услуги в индустрии гостеприимства как эффективный инструмент продвижения бренда предприятия .....                               | 570 |
| <b>А.И. Лесников, Д.В. Мамаева</b>                                                                                                             |     |
| Преимущества и вызовы перехода на зелёную экономику.....                                                                                       | 580 |
| <b>Умарова Гузал Гайратовна, Лапасова Камола Фарход кизи</b>                                                                                   |     |
| Yashil iqtisodiyot sharoitida hududlarda ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish .....                             | 586 |
| <b>Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li, Djurayeva MaxliyoXon Xayrullayevna</b>                                                                |     |
| Yashil iqtisodiy o'sishni ta'minlashda bevosita soliqlar rolini oshirish masalalari.....                                                       | 591 |
| <b>Abdullayev Dilmurod Aliyar o'g'li</b>                                                                                                       |     |
| The main directions for improving innovative activities in agriculture .....                                                                   | 598 |
| <b>Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna</b>                                                                                                        |     |
| Klaster tizimi orqali O'zbekistonda qishloq xo'jaligining iqtisodiy o'sishi .....                                                              | 605 |
| <b>Xaydarov Sardor Komil o'g'li</b>                                                                                                            |     |
| Inklyuziv ta'lim: adolatli va teng jamiyat sari.....                                                                                           | 610 |
| <b>Muxamedjanova Dilshodxon Muzaffarovna</b>                                                                                                   |     |
| Yashil iqtisodiyot: muammo va yechimlar .....                                                                                                  | 615 |
| <b>Boymatov Xoliyor Qurbonovich</b>                                                                                                            |     |
| Issues of using foreign loans in the development of the transport system in the Republic of Uzbekistan .....                                   | 621 |
| <b>Alimov Ilhomjon Ikromovich</b>                                                                                                              |     |
| Проблемы и резервы развития пищевой промышленности в экспортном направлении.....                                                               | 628 |
| <b>Ўролова Севара Бехзод кизи</b>                                                                                                              |     |
| Оценка степени риска инновационной деятельности.....                                                                                           | 634 |
| <b>Алиева Эльнара Аметовна</b>                                                                                                                 |     |
| Yashil innovatsiyalar, ularning turlari va omillari.....                                                                                       | 638 |
| <b>Maxkamova Sayyora Shokirovna</b>                                                                                                            |     |
| Qishloq xo'jaligida transport tizimidan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....                                                         | 641 |
| <b>Turdiyeva Irodaxon Ismoil qizi</b>                                                                                                          |     |
| Soliq ma'murchiligida nazorat funksiyasi va unda kameral soliq tekshiruvi hamda takomillashtirish yo'llari.....                                | 648 |
| <b>Hujamuradov Abrorbek Ro'zimurat o'g'li</b>                                                                                                  |     |
| Sanoat korxonalarida xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlash metodologiyasini takomillashtirish istiqbollari .....                         | 653 |
| <b>Safarov Javohir Ismoilovich</b>                                                                                                             |     |
| Moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda milliy standartlarni xalqaro standartlarga uyg'unlashtirish masalalari .....                           | 659 |
| <b>G'aniyev Zafar Usanovich</b>                                                                                                                |     |
| Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi faoliyati.....                                                                                   | 666 |
| <b>Adilov Zuxriddin Marip o'g'li</b>                                                                                                           |     |
| Tibbiyot muassasalarining moliyaviy ta'minoti va resurslardan foydalanish mexanizmlariga ta'sir qiluvchi omillar .....                         | 670 |
| <b>Elmurodov G'ayratjon Abdumurodovich</b>                                                                                                     |     |
| Tourism finance for sustainability: investing in green futures .....                                                                           | 674 |
| <b>Tashpulatov Sadriddin Sayfulloyevich</b>                                                                                                    |     |



|                                                                                                                                            |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Ta'lim jarayonlarini boshqarishda mobil texnologiyalar .....                                                                               | 681 |
| <b>Esonova Mohiraxon Sodiqjon qizi, Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Sherzodbek Nabiyev Nurmuhammad o'g'li</b>                             |     |
| Banklarda risklarni nazorat qilishning amaliyoti .....                                                                                     | 686 |
| <b>Jumanazarov Muzaffar Jumanazar o'g'li</b>                                                                                               |     |
| Налоговые реформы в Узбекистане: вызовы, достижения и перспективы .....                                                                    | 692 |
| <b>Садиков Искандар Гайратович, Буранова Лола Вахобовна</b>                                                                                |     |
| Turizm xizmatlari samaradorligini baholash usullari va vositalari tahlili .....                                                            | 704 |
| <b>Jiyanov Uktam Panjiyevich</b>                                                                                                           |     |
| Korxona va tashkilotlarda xodimlarni boshqarish strategiyasi .....                                                                         | 712 |
| <b>Raxmonova Feruza Musakulovna</b>                                                                                                        |     |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlashning ahamiyati .....                                         | 716 |
| <b>Dusmaxamedov Abduljalil Abdusabirovich</b>                                                                                              |     |
| Davlat korxonasini xo'jalik jamiyatiga o'zgartirishning foydali jihatlari .....                                                            | 720 |
| <b>Z.D. Sanjarov</b>                                                                                                                       |     |
| The role and main types of agricultural tourism in Uzbekistan .....                                                                        | 724 |
| <b>M.Xolmuratova, G.N.Tojiyeva</b>                                                                                                         |     |
| Цифровые технологии как драйвер повышения эффективности банковского маркетинга .....                                                       | 727 |
| <b>Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли, Маннабова Хулкар Фарход кизи</b>                                                                      |     |
| Потребительская стоимость товаров в условиях экономики Узбекистана .....                                                                   | 735 |
| <b>Мусаева Шоира Азимовна</b>                                                                                                              |     |
| Valyuta risklarini boshqarishda metching siyosatining ahamiyatini oshirish .....                                                           | 739 |
| <b>Yahuyayev Ziyodilla Lutfullayevich</b>                                                                                                  |     |
| Yangi o'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati .....                                                          | 744 |
| <b>Azimova Shoxista Salohiddinovna</b>                                                                                                     |     |
| Improving the methodology for assessing the financial stability of banks .....                                                             | 750 |
| <b>Sharipova N.H.</b>                                                                                                                      |     |
| Инструменты стратегического планирования и прогнозирования в управлении ООО "МТЕ ТЕХНИК": оценка и повышение финансовой стабильности ..... | 757 |
| <b>Нишоновна Муниса Одилжон кизи</b>                                                                                                       |     |
| Актуальные вопросы налоговой политики .....                                                                                                | 763 |
| <b>Бердыева Угулой Абдурахмоновна</b>                                                                                                      |     |
| Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi .....                                                        | 768 |
| <b>Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li</b>                                                                                                     |     |
| Jizzax viloyatida ekologik, rekreatsiya turizmlarini rivojlantirishning iqtisodiy samaradorligini baholash va uni prognozlashtirish .....  | 773 |
| <b>G'apparov Azim Qayumovich</b>                                                                                                           |     |
| Qashqadaryo viloyatida ekologik va yashil texnologiyalarga kiritilayotgan investitsiyalar .....                                            | 781 |
| <b>Meylikov Fazliddin Abduhalim o'g'li, Buriyev Shaxbos Baxtiyorovich</b>                                                                  |     |
| Biznes subyektlari auditida soddalashtirilgan moliyaviy hisobot tayyorlash usulini qo'llash xususiyatlari .....                            | 786 |
| <b>Tajekeev Ziyatdin Kobeysinovich</b>                                                                                                     |     |
| Biznes jarayonlarni modellashtirishning nazariy asoslari .....                                                                             | 791 |
| <b>Mullajonova (Matchanova) Shaxsanam Taxiroyva</b>                                                                                        |     |
| Raqamli xizmatlar bozori: elektron tijorat orqali xizmat ko'rsatishning yangi bosqichlari .....                                            | 796 |
| <b>Maxammadaliyeva Muslimaxon Sherali Qizi</b>                                                                                             |     |
| "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati va uni barqarorlashtirishning ahamiyati .....                                                     | 800 |
| <b>Musurmankulova Gulchehra Isabekovna</b>                                                                                                 |     |
| Ekologik turizm nuqtai nazaridan turizm marketingining usullari va asosiy vositalarining xususiyatlari .....                               | 806 |
| <b>Yokubjonova Xulkarbonu Yokubovna</b>                                                                                                    |     |
| O'zbekiston iqtisodiyotida turizmning o'rni va rivojlanish istiqbollari .....                                                              | 815 |
| <b>Qosimova Fazilat, Kalandarov Ravshan</b>                                                                                                |     |
| Korporativ strategiyani ishlab chiqish bosqichlarining tahlili .....                                                                       | 819 |
| <b>Xidirova Marg'uba Rustamovna, Abduvasiyeva Marjona Anvarovna</b>                                                                        |     |



|                                                                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Mamlakatimiz turizmini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlarning o'rni.....        | 823 |
| <b>Ayubov Ilyos Ilxomovich, Nuridinov Bexruz Akbar o'g'li</b>                                                                   |     |
| Hududlarda tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlariga undovchi omillarning empirik tadqiqoti.....      | 829 |
| <b>Irgasheva Gulbahor</b>                                                                                                       |     |
| Davlat vositalari yordamida innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish yo'nalishlari .....                               | 836 |
| <b>Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich</b>                                                                                       |     |
| Важность качества управления на предприятиях общественного питания.....                                                         | 842 |
| <b>Абдуллаева Зульфия Иззатовна, Махмудов Суннатжон Абдужаббор Угли</b>                                                         |     |
| O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari .....                                                    | 848 |
| <b>Shaislamova Nargiza Qabilovna</b>                                                                                            |     |
| Mahalliy budjetning qo'shimcha daromadlarini shakllantirish yo'nalishlari.....                                                  | 856 |
| <b>Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li</b>                                                                                     |     |
| Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari .....                              | 860 |
| <b>Ro'zimatova Nigora Abdullaevna</b>                                                                                           |     |
| Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана .....                          | 869 |
| <b>Айтмуродова Рушана Бахтиеровна</b>                                                                                           |     |
| Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlarini .....                                                  | 876 |
| <b>Allaberganova Asalxon Kadirovna</b>                                                                                          |     |
| Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish .....                               | 880 |
| <b>Xasanov Ruslan Raxmatovich</b>                                                                                               |     |
| Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish .....       | 883 |
| <b>Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li</b>                                                                                             |     |
| MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar .....                            | 888 |
| <b>Sheraliyev Xayrulla Karimovich</b>                                                                                           |     |
| Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari ..... | 894 |
| <b>Karimov Inomjon Ortikbaevich</b>                                                                                             |     |
| Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....                                | 900 |
| <b>Burxanov G'ofur Baxodirovich</b>                                                                                             |     |



# DAVLAT XARIDININI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY-IQTISODIY AMALIYATI VA UNI IQTISODIYOTGA TA'SIRI

**Burxanov G'ofur Baxodirovich**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi  
"Davlat moliyasi va xalqaro moliya" mutaxassisligi magistranti  
ORCID: 0009-0008-9981-857X

**Annotatsiya:** Maqolada davlat xaridlarini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Budget, davlat xaridlarini nazorati, xarid sohasidagi vakolatlar, nazorat qiluvchi organlar, davlat xaridi siyosati, davlat xaridi tizimini boshqarish.

**Abstract:** The article examines the socio-economic practice of organizing public procurement and its impact on the economy.

**Key words:** Budget, public procurement control, procurement powers, regulatory bodies, public procurement policy, public procurement system management.

**Аннотация:** В статье рассматривается социально-экономическая практика организации государственных закупок и ее влияние на экономику.

**Ключевые слова:** Бюджет, контроль за государственными закупками, полномочия по закупкам, регулирующие органы, политика в области государственных закупок, управление системой государственных закупок.

## KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida davlat xaridi tizimini boshqarishni isloh etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Hukumat tomonidan xarid jarayonlarini shaffofligini ta'minlashga qaratilgan, jumladan, xaridni amalga oshirishda tender jarayonlaridan kengroq foydalanish yo'nalishlari bo'yicha qator hujjatlar qabul qilinmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan maqsad, nafaqat, davlat mablag'laridan foydalanishning samarali hisob va nazoratini tashkil etish, balki davlat buyurtmachilarining shartnomaviy-huquqiy tartibga rioya etish darajasini oshirish, xaridning samarali boshqaruv tizimini shakllantirishdan iboratdir.

Davlat xaridi tizimini boshqarishni isloh etish kompleks yondoshuvni talab etadi. Islohotlar faqatgina maxsus qarorlar qabul qilish va davlat xaridi bo'yicha vakolatli agentlikni tashkil etish bilan chegaralanib qolmasdan, balki turli xil davlat organlari o'rtasida hamkorlikda harakatni yo'lga qo'yish, ular o'rtasida vakolatlarni taqsimlash, tizimda kuchlar nisbatini tengligini ta'minlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni talab etadi.

Shunday ekan, respublikamizda davlat xaridi tizimini boshqarishni takomillashtirish, uning yaqin va uzoq muddatli strategiyalarini shakllantirish hamda ushbu jarayonlarda kichik biznes subyektlarini ishtirokni ta'minlash, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning hozirgi bosqichida dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda [1].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon miqyosidagi eng mashhur tadqiqotlardan biri-B. Thai va A. Piga ishlaridir. Ular davlat xaridlari tizimida shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga qaratilgan mexanizmlarni ishlab chiqqan. Ularning tadqiqotlari davlat xaridlarida shaffoflik darajasini oshirish, korrupsiyani kamaytirish va resurslardan samarali foydalanishni





ta'minlash masalalariga qaratilgan. Biroq, ushbu tadqiqotlarning kamchilik tomoni sifatida ularning asosan rivojlangan davlatlarda amalga oshirilgan tajribalarni o'rganganligi va rivojlanayotgan mamlakatlarga moslashtirishdagi qiyinchiliklarni qamrab olmaganini aytib o'tiladi [2].

Shuningdek, A. Telgen va V. Harland davlat xaridlari tizimining samaradorligini o'lchashda indikatorlardan foydalanish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazgan. Ularning ishlari davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini o'lchashda foydali bo'lsa-da, ayrim hollarda indikatorlarning subyektivligi va aniqlik darajasining pastligi muammo tug'diradi. Shu bilan birga, Telgen va Harlandning yondashuvlari davlat xaridlari samaradorligini oshirish uchun tizimning har bir bosqichida statistik ma'lumotlarga asoslangan indikatorlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi [3].

O'zbekistonda davlat xaridlari tizimini o'rganish borasida O'roqov Uchqunning ilmiy ishlari alohida o'rin tutadi. O'roqov o'z maqolalarida O'zbekistondagi davlat xaridlari tizimini takomillashtirish, xalqaro tajribalarni joriy etish va samaradorlikni oshirish masalalariga e'tibor qaratgan. U davlat xaridlari tizimining korrupsiyaga qarshi kurashdagi ahamiyati, shaffoflikni oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yoritgan. Biroq, O'roqovning tadqiqotlari O'zbekistondagi iqtisodiy sharoitlarga asosan moslashtirilgan bo'lib, xalqaro miqyosdagi yangi texnologiyalar, masalan, blokcheyn asosida qurilgan xarid tizimlariga kamroq e'tibor qaratilgan [4].

Bundan tashqari, davlat xaridlari tizimi samaradorligini baholash bo'yicha O'zbekistonda boshqa olimlar ham tadqiqot olib bormoqda. Jumladan, J. Karimov va T. Akramovlar davlat xaridlari tizimini samaradorligini oshirish uchun xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan milliy tizimda foydalanish yo'nalishida tadqiqot olib borishgan. Ularning ishlari ko'proq moliyaviy oqimlar, xarid jarayonidagi raqobat muhitini tahlil qilish va shaffoflikni oshirishga qaratilgan [5].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda davlat xaridi tizimini tashkil etish, uning modellari, davlat xaridini tashkil etishning xalqaro tajribalari o'rganishlar suratlardan qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Davlat tizimi va boshqaruv sohasidagi islohotlar natijasida xarajatlarni boshqarishning yangi huquqiy tizimi shakllantirilmoqda. Bu o'z navbatida, davlat mablag'larini sarflanishi samaradorligini ta'minlashga, uning zamonoviy boshqarav mexanizmlarini amalda tatbiq etishga imkon beradi.

Xalqaro miqyosda yuzaga kelgan yangi iqtisodiy vaziyat, davlat mablag'lari hisobidan xarajatlarni amalga oshirishda hukumatlar oldiga qo'yilgan vazifalarning muhimligini oshirmoqda.

Ma'lumki, davlat o'z vazifalarini bajarish jarayonida bir qator xarajatlar qilishi zarur. Bu xarajatlar, eng avvalo, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun turli tarmoqlarga investitsiya qilishga, aholining turmush darajasini ko'tarishga, hamda ijtimoiy vazifalarini bajarishga qaratilgan, davlatni boshqarish, mudofaani ta'minlash kabi aniq maqsadlarga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan xarajatlardan iborat bo'ladi. Umumdavlat xarajatlari, asosan, davlat budjeti va davlatning boshqa markazlashtirilgan fondlari orqali moliyalashtiriladi.

Davlat budjetining iqtisodiy tushunchasi, umumjamiyat miqyosida markazlashgan, davlat ishtirokida to'plangan va sarflanadigan moliyaviy resurslarni anglatadi.

Davlat xarajatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida davlat xaridi alohida o'ringa ega.

Tovar va xizmatlarni xarid etish dunyo rivojlanish amaliyotida muhim o'rin egallaydi va fondlar hamda investitsiyani samarali o'zlashtirishga yo'naltirilgan uzluksiz jarayon hisoblanadi. O'zbek tilidagi "xarid" termini (inglizchada, procurement-prokyurment) "sotib olish" ma'nosi bilan bir ma'noda ishlatilib, zamonoviy tushunchalarda mahsulotlarni, bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlarni ma'lum haq evaziga olish demakdir (inglizchada, procurement of goods, works and services).

Davlat xaridi

- bu davlat ehtiyojlari uchun tovarlar va xizmatlarni qisman yoki to'liq davlat mablag'lari evaziga sotib olishdir [6].

Davlat xaridini boshqarishga tizimli yondoshuv to'g'ri bo'ladi. Shunday ekan, davlat ehtiyojlari uchun xaridni rejalashtirish va amalga oshirish hamda nazorat etish bilan bog'liq barcha jarayonlar davlat xaridi tizimini yuzaga keltiradi.

Davlat xaridi davlat infratuzilm asini moddiy-moliyaviy ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Davlat infratuzilmasini umumiy tarzda ikkita yirik tarkibiy qismiga ajratish mumkin:



- iqtisodiy infratuzilma (transport, maishiy xizmatlar, kundalik iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun birlamchi bo'lgan infratuzilmalar);

- ijtimoiy infratuzilma (maktablar, shifoxonalar, kutubxonalar, yoki boshqacha aytganda, jamiyat kundalik hayoti uchun birlamchi infratuzilmalar). Ijtimoiy sohalarga Davlat xaridini amalga oshirish zarurati umumjamiyat manfaatlaridan kelib chiqadi. O'zbekistonda ijtimoiy sohalarga investitsiyalar va davlat xaridi mavjud qonuniye'yoriy aktlar orqali tartibga solinadi.

Davlat moliyasini boshqarishni isloh etish bo'yicha amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida, davlat xaridini tashkil etishni tubdan isloh etish, uni tartibga soluvchi huquqiy bazani shakllantirish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Davlat xaridini boshqarish tizimini takomillashtirish uchun quyidagi elementlardan foydalanish samarai yo'nalish hisoblanadi:

- davlat xaridini boshqarish yuzasidan ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish;
- davlat xaridi siyosatini davlatning iqtisodiy siyosati maqsadlariga muvofiqlashtirish; davlat xaridi sohasidagi amalga oshirilayotgan siyosatni monitoring va baholashni tatbiq etish.

Davlat ehtiyojlari uchun xaridni amalga oshirish mexanizmining samarali bo'lishi, ko'p jihatdan, davlat xaridi uchun qaror qabul qilayotgan davlat xizmatchilarining kvalifikatsiya darajasi, professional tayyorgarligi va haqqoniyligiga bog'liq. Ko'pgina davlatlarda davlat xaridi bilan shug'ullanadigan xodimlarni tayyorlash va ular malakasini oshirish bevosita hukumatning zimmasiga yuklatilgan vazifasi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan yuqoridagi ko'rsatilagan yo'nalishlardagi muammolarni bartamf etishga katta e'tibor qaratilmoqda va davlat xaridini amalga oshirishda ishtirok etuvchi boshqa subyektlar ishtirokida, davlat xaridi jarayonining mexanizmlarini hamda uning huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Xususan, davlat xaridi tizimini boshqarish bo'yicha tizim yondoshuvga bo'lgan talab hamda davlat xaridining iqtisodiyotning ayrim sohalariga bo'lgan ta'sir etuvchi mexanizm sifatida foydalanish strategiyalari shakllantirilmoqda.

O'zbekistonda davlat xaridining hajmi YalMning 11 foizini tashkil etgani holda, uni iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Davlat xaridi YalMni shakllanishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi [7]. Bularni inobatga olib davlat xaridini amalga oshirish sohasida olib borilgan oqilona siyosat makroiqtisodiy siyosatga jiddiy ta'sir etuvchi instrument sifatida yuzaga chiqadi:

- davlat xaridini iqtisodiyotning ma'lum sohalarida amalga oshirish orqali, o'sha sohalarning rivojiga va aholi bandligi hamda daromadlari darajasiga ijobiy ta'sir etadi;
- ochiq tenderlarni e'lon qilish orqali raqobatni rivojlantirishga ta'sir etadi;
- sotib olinayotgan tovarlarning sifat talabini xalqaro andoza talablarga tenglashtirish orqali, milliy ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot sifatini oshirishga ta'sir etish mumkin;
- kichik biznes vakillari tomonidan ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarni sotib olishda tanlov jarayonlarini joriy etish orqali, kichik biznesni va raqobatni rivojlantirishga ta'sir etish mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar faqatgina mamlakat darajasida davlat xaridini boshqarishning samarali mexanizmlari mavjud bo'lgan sharoitda, ya'ni xaridni rejalashtirish va uning iqtisodiyotga ta'sirini baholash orqali erishish mumkin.

O'zbekiston hukumati davlat xaridi instrumentidan turli ko'rinishlarda foydalanib kelmoqda. Masalan, o'rta maxsus ta'lim tizimini islohotlar, nafaqat, o'quv binolari sonini ortishiga olib keldi, balki respublikada kapital qurilish sohasining rivojiga ham katta turtki berdi.

2000-yillar boshida qurilish kompaniyalari nochor ahvolda bo'lgan bo'lishsa, hozir ular qurilish-montaj va loyihalarning turli-tumanligi va sifati bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan raqobat qilishmoqda.

Shuning bilan bir vaqtda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan qurilish materiallarining turlari ham kengaydi. Kapital qurilish sohasida davlat buyurtmasi aholi bandligini oshirishda ham muhim rol o'ynadi. Xuddi shunday misolni mebel ishlab chiqarish sanoatiga nisbatan ham keltirib o'tish mumkin [8].

O'zbekiston Respublikasida davlat xaridining subyektlari quyidagilar hisoblanadi:

Davlat buyurtmachilari: budget mablag'larini oluvchilar va budget hamda budgetdan tashqari fondlar mablag'larini taqsimlovchilar:

- budget mablag'lari oluvchi tashkilotlar;
- budgetdan tashqari maqsadli fondlarning ijroiya direksiyalari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar mahkamasi, viloyatlar hokimligi va Toshkent shahar hokimligi qoshidagi yagona buyurtmachi xizmati;
- hukumat kafolati ostida xalqaro grant va qarz olgan hamda ushbu mablag'lar hisobidan davlat xaridini amalga oshirayotgan tashkilotlar;
- davlat mulki ishtirokida faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlari.



Tashqi nazorat organlari (O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi);  
Hukumat (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi);  
Davlat va xo'jalik boshqaruv organlari (nazoratni tashkil etuvchi organlar):

- Moliya vazirligi;
- Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo vazirligi;
- Davarxitekqurilish;

Tovarlar va xizmatlar yetkazib beruvchilar: tovarlar (xizmatlar, ishlar) yetkazib beruvchi xo'jalik subyektlari.

Xaridni tashkil etish jarayoniga ko'maklashuvchi tashkilotlar:

- xizmat ko'rsatuvchi banklar;
- transport-ekspeditorlik kompaniyalari;
- maslahat va ekspertiza hamda boshqa tashkilotlar;
- mavjud qonunchilik asosida ekspert baholash xizmatini amalga oshiruvchi boshqa tashkilotlar.

Davlat xaridining predmeti, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar, bajariladigan ishlar va xizmatlar hisoblanadi.

Evropa mamlakatlarida davlat xaridini tovarlar, ishlar va xizmatlarga ajratish bo'yicha YuNSITRAL [9] tomonidan taklif etilgan tasniflashga asosan:

Tovarlarga - xomashyo, buyum, uskunalar, qattiq, suyuq va gaz holatdagi predmetlar, elektr energiyasi, shuningdek, tovarlarni yetkazib berish bo'yicha xizmatlar qiymati (agar u tovarning bahosidan yuqori bo'lmasa) kiritiladi.

Ishlar deganda-qurilish, ta'mirlash, binoni, inshoot va obyektlarni buzish yoki ta'mirlash bilan bog'liq faoliyat turlari, shuningdek, guruntlarni qazish, yangidan qurish, jihozlash, montaj uchun qurilish maydonlarini tayyorlash va boshqa qurilish ishlari masalan, geodeziya va burg'alash bo'yicha ishlar, aero va sun'iy yo'ldosh orqali suratga olish, seysmik tadqiqotlar o'tkazish (agar ushbu xizmatlar bahosi asosiy ish bahosidan yuqori bo'lmasa) tushuniladi.

Xizmatlarga esa-tovar va ishlarga taalluqli bo'lmagan barcha xarid predmeti tushuniladi.

Xaridning turli kategoriyalari bo'yicha xaridni qonuniy tartibga solish (g'olibni aniqlashda tender shartlari va usullaridan foydalanish) turlicha bo'ladi

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida raqobatning kuchayishi, davlat mablag'laridan oqilona foydalanish zarurating dolzarbligi va xarid jarayonlarini boshqarish sohasida innovasion usullarning yuzaga chiqishi bilan, davlat xaridi tizimini boshqarish har bir mamlakat hukumatlari oldida muhim masala bo'lib qolmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Davlat xaridlari tizimi O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlik va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan muhim sohalardan biridir. Mamlakatda ushbu tizimni takomillashtirish bo'yicha qator islohotlar olib borilmoqda biroq xalqaro amaliyotdan o'rganilishi kerak bo'lgan bir qancha jihatlar mavjud. Davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish va raqobatni kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini joriy etish, tadbirkorlarni faolroq jalb qilish maqsadida turli chora-tadbirlar amalga oshirish zarur.

O'zbekiston davlat xaridlari tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish uchun doimiy yangilanish va xorijiy tajribalarni hisobga olish zarur. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirishga, balki davlat xaridlari jarayonining ochiqligini ta'minlash va korrupsiyaga qarshi samarali kurash mexanizmlarini joriy qilishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. U. Burxanov, T. Atamuradov "Davlat xaridi" Tafakkur bo'stoni, Toshkent 2012
2. B. Thai, A. Piga, (2006). Advances in Public Procurement. Springer. Davlat xaridlari tizimida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish usullari.
3. A. Telgen, V. Harland, (2012). Performance Indicators for Procurement Processes. Routledge.
4. U. O'roqov, (2022). Elektron davlat xaridlari tizimini O'zbekistonda takomillashtirish yo'nalishlari.
5. J. Karimov, T. Akramov, (2022). Elektron davlat xaridlarida xorijiy tajriba va milliy amaliyot.
6. У. Бурханов. Государственные закупки, [http://el.tfi.uz/pdf/gos\\_zakup\\_ru.pdf](http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf)
7. О проблемах управления государственными закупками в Республике Узбекистан и направлениях совершенствования. Аналитическая записка. UNDP. Ташкент 2008.
8. У. Бурханов. Государственные закупки, [http://el.tfi.uz/pdf/gos\\_zakup\\_ru.pdf](http://el.tfi.uz/pdf/gos_zakup_ru.pdf)
9. (United Nations Commission on International Trade Law)-Xalqaro savdo huquqi bo'yicha BMTning Komissiyasi. 1966-yilda BMTning xalqaro savdo huquqini yagonalashtirish bo'yicha qarori asosida tashkil etilgan. 36 ta davlat vakillaridan iborat (14 Yevropa va boshqa davlatlar, 16 Afro-Osiyo va 6 Lotin amerikasi davlatlari). Shtab-kvartirasi Vena shahida joylashgan.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>